

TA`LIM QONUNCHILIGI MODERNIZATSIYASI

Sabirova Muxarram

Andijon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Qo`ychiyeva Mohlaroy Lutfiddin qizi

Abdulxafizova Mubinaxon Avazbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Texnologik ta`lim 3-bosqich talabalari

Annotatsiya: Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e`tiqodi, shaxsiy va ta`lim tizimidagi ijobiy o`zgarishlar, o`z navbatida, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilishini talab etadi. Amaldagi “Ta`lim to`g`risida”gi qonun esa bundan 22 yil avval qabul qilingan. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas`ul qo`mitalari hamda ishchi guruhlari tomonidan bir necha bor muhokamalar o`tkazildi. Natijada yangi tahrirdagi “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan shu yili 7-avgust kuni ma`qullandi. O`qituvchi faoliyatining muvaffaqiyati avvalo u didaktik prinsip (qonuniyat) larni qanchalik to`g`ri amalga oshirishiga bog`liq. Ta`lim qonuniyatlari bu -o`qitish jarayoniga qo`yiladigan talablar yig`indisidir. Ta`lim prinsip (tamoyil)lari deb, ta`limning barcha bosqichlari va hamma predmetlarini o`qitish uchun asos bo`ladigan qonuniyatlar, qoidalarga aytamiz. Ta`lim qonuniyatlari o`quvchi va o`qituvchi orasidagi eng muhim ichki ahamiyatni aks ettiradi. O`zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017 yil 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Bu haqda Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o`rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo`yicha

ishlab chiqildi. Hujjat internetda e'lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o'tdi.

Kalit so'zlar: Magistratura, kadrlar malakasi, nodavlat ta'lim, intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik, jismoniy, bilim, malaka, ko'nikmalar, ta'lim berish, tarbiyalash, ilmiylik prinsiplari.

МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Аннотация: Положительные изменения в законодательстве по вопросам пола, расы, национальности, языка, религии, социального происхождения, убеждений, личных и образовательных систем, в свою очередь, требуют совершенствования правовой базы отрасли. Действующий Закон об образовании был принят 22 года назад. В целях совершенствования законопроекта проведен ряд обсуждений в ответственных комитетах и рабочих группах Законодательной палаты и Сената Олий Мажлиса. В результате 19 мая 2020 года Законодательной палатой Олий Мажлиса была принята новая редакция Закона «Об образовании». Он был одобрен Сенатом 7 августа этого года. Успешность работы учителя зависит прежде всего от того, насколько правильно он реализует дидактические принципы (законы). Образовательное законодательство представляет собой набор требований к процессу обучения. Образовательные принципы — это законы и правила, которые составляют основу обучения на всех уровнях образования и по всем предметам. Образовательные законы отражают важнейшие внутренние отношения между учеником и учителем. Президент Узбекистана Ш. Указом от 7 февраля 2017 года Мирзиёев утвердил Стратегию действий по пяти приоритетным направлениям развития Узбекистана на 2017–2021 годы. Проект Стратегии разработан на основе комплексного изучения актуальных вопросов, волнующих население и предпринимателей, а также анализа законодательства, правоприменительной практики и зарубежного опыта. Документ был опубликован в Интернете и широко обсуждался экспертами и общественностью.

Ключевые слова: Магистратура, квалификация кадров, негосударственное образование, интеллектуальные, духовно-нравственные, этические, эстетические, физические, знания, квалификации, умения, обучение, воспитание, научные принципы.

MODERNIZATION OF EDUCATIONAL LEGISLATION

Abstract: Positive changes in the education system, in turn, require the improvement of the legal framework of the sphere. The current Law "On Education" was adopted 22 years ago. In order to improve the draft law, the responsible committees and working groups of the Legislative Chamber and Senate of the Oliy Majlis held several discussions. As a result, the Law "On Education" in the new edition was adopted by the Legislative Chamber of the Oliy Majlis on May 19, 2020. It was approved by the Senate on August 7 of the same year. The success of a teacher's work depends primarily on how correctly he implements didactic principles (laws). Educational laws are a set of requirements for the teaching process. By educational principles (principles) we mean the laws and regulations that serve as the basis for teaching all stages of education and all subjects. Educational laws reflect the most important internal significance between the student and the teacher. By the decree of the President of Uzbekistan Sh. Mirziyoyev dated February 7, 2017, the Strategy of Actions for the development of Uzbekistan in five priority areas for 2017-2021 was approved. The draft Strategy was developed based on the results of a comprehensive study of current issues and issues of concern to the population and entrepreneurs, an analysis of legislation, law enforcement practice and foreign experience. The document was published on the Internet and was widely discussed by experts and the public.

Keywords: Master's degree, personnel qualifications, non-state education, intellectual, spiritual-moral, ethical, aesthetic, physical, knowledge, qualifications, skills, teaching, upbringing, scientific principles.

KIRISH

Ijtimoiy sohalarning rivojlantirishida milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviyva ahloqiy fazilatlarini rivojlantirishga hamda ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta'lim muassasalarini mintaqalashtirishga e'tabor qaratilgan. Ma'lumki, qonuniyat-bu barqaror, zaruriy u yoki bu xodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ijtimoiy ehtiyojlar va sharoitlar o'quv jarayonining harakteri, uning vazifalari, mazmuni, shakllari: usullari va vositalari qonuniy ravishda aniqlab beradi. Agar o'qitish jamiyat talablarini e'tiborga olmasa, u holda uni, albatta, qayta ko'rish, takomillashtirish kerak. Demak, ta'lim berish, tarbiyalash va o'quvchilarning umumiy rivojlanishlarini bir butunlikda amalga oshirish zarur. Ifodalangan qonuniy didaktik aloqalarni va o'qitish qoidalarini ilmiy asoslangan o'zaro bog'lanishda qo'llash ko'nikma va malakalarni chuqur, puxta, ongli va ta'sirli o'zlashtirilishini ta'minlaydi. O'qitishni aynan shunday natijaga qaratish uning onglilik, puxtalik, ta'sirchanlik qoidalarini harakterlaydi. Ta'limning mazmuni hayot, hozirgi zamon fani bilan bog'langan bo'lganligi uchun ham, vazifalarda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish muammolari, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish, kompyuterlash kabilar asosida intensivlash o'z aksini topishi kerak. Har bir o'qituvchi shuni anglab yetishi muhimki, o'quv jarayonini samarali ko'rish -bu, ishda o'zini oqlagan pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, didaktik qoidalarni hozirgi zamon sharoitidagi yangi masalalarni xal qilishda ijodiy foydalangan holda, ulardan butunlay va o'zaro aloqada foydalanish demakdir.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

O'qitishning muqobil tomonlarini tanlash uchun butun qonuniyatlar birligini va didaktik qoidalarini e'tiborga olish zarur. O'qitish qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyan muhim talablar kelib chiqadiki, buni o'qitish qoidalari deb ataladi. O'qitish qoidalarini bilish o'qitishning zarurusullarini yanada ishonchliroq tanlashga imkon beradi. Ta'lim qoidalari -o'qituvchining faoliyatini va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va

malakalar hosil qilishning asosiy qonun va yo'l –yuriqlarini o'z ichiga oladi. SHu bilan bir vaqtda ta'lim qoidalari har ikkala faoliyatni, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi tomonidan o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatini beradigan bir qancha talablarni ham umumlashtirib beradi. Ta'lim o'qituvchining faoliyati va o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirilishi, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonuni va yo'l-yo'riqlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tamoillari o'qitishning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy qonuniyatlaridir. Qonuniyat bu barqarorlik, zaruriyat, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Ta'lim tamoyillari deb, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan o'qish va o'qitish jarayonlarining yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning o'zlashtirishlari, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishning asosiy qonun qoidalarining yig'indisiga aytiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

O'qitish prinsiplari ta'limning eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi. Ta'lim prinsiplari o'quv-tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rioya qilinadigan qoidalar sifatida amal qiladi. Ta'lim prinsiplari haqida tasavvurlar ikki xil yo'l bilan izohlanadi: 1) tasvir shaklida. Masalan, ilmiylik prinsipi fan va o'quv predmeti o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Bu yerda ilmiylik prinsipi tasvir orqali bayon qilingan; 2) qoida shaklida. Masalan, ta'limda oddiydan murakkabga qarab boriladi. Bu jumlada tushunarliklik prinsipi qoidaga solingan, ya'ni normalashtirilgan. Ta'lim prinsiplari qoida shaklini ollevertgan sari, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ham kengayaveradi. Mutaxassislar ta'lim prinsiplari xususiyatlarini, asosan, o'qituvchi faoliyatiga nisbatan izohlashadi. Shu sababli ko'pchilik didaktik qo'llanmalarda "o'qitish prinsiplari" iborasi ishlatilgan. Ta'lim prinsiplari talim jarayonining ikkala sub'eaktiga-ham o'qituvchi, ham o'quvchiga daxldor. SHunga ko'ra biz ularni ta'lim prinsiplari deb nomladik. Ta'limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalar ta'lim prinsipi deb aytiladi. Ta'limning ilmiylik prinsiplari Maktablarimizda ta'limning ilmiy bo'lishi

prinsipi ta`lim jarayonida o`quvchilarning tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi qonun va qoidalarni dialektik materialistik asosda egallab olishlarini, atrofni o`rab olgan ob`yektiv borliqdagi predmet, narsa, hodisa va voqealarning bir-biriga bog`liqligi, hamisha harakatda va rivojlanishda ekanligini ilmiy asoslarini anglab olishlarini, fakt va hodisalarni mustaqil tahlil qilish va xulosalar chiqarish, shuningdek, ularga o`zlashtirilgan ilmiy bilimlarning turmushda bilish ko`nikma va malakalarni hosil qilish talabalarning o`z ichiga oladi. Ta`limning ilmiy bo`lishi prinsipi ta`lim jarayonida o`quvchilarning hozirgi fan va texnika taraqqiyot darajasiga muvofiq keladigan ilmiy bilimlar bilan qurollashtirishni hamda maktab ta`limi davomida yoshlarni ilmiy bilimlar bilan tanishtirib borishni ta`minlashga qaratilgan. Didaktikaning ilmiylik prinsipi maktab ta`limining mazmunigagina aloqador bo`lib qolmay, o`qitish meto`dlariga ham aloqadordir. U maktab ta`limi jarayonida fan-texnika yutuqlaridan foydala olishga qaratilgan o`qitish meto`dlarini ham takomillashtirishni talab qiladi. Shuningdek, o`quvchilarning umumiy tayyorgarligi, saviyasi va yosh xususiyatlariga mos keladigan eng sodda shakldagi ilmiy tadqiqot meto`dlari bilan tanishtirishni ham talab qiladi. Ayniqsa o`quvchilarni, atrofni, narsa, voqeava hodisalarni mustaqil suratda kuzatish, eksperiment o`tkazish, dastlabki ilmiy tadqiqot meto`dlari bilan tanishtirishni talab qiladi. Didaktikaning ilmiylik prinsipi o`quvchilar ilmiy materialistik dunyoqarashlarni shakllantirishga, atrofni o`rab olgan ob`ektiv borliqni o`rganish, bilishga bo`lgan qiziqishlarni o`stirish, shuningdek ularning mustaqil ravishda o`z ma`lumotlarini oshirishga mustaqil ilmiy ishlar olib borishga bo`lgan moyilliklarini rivojlantirish ham zarur bo`lgan ko`nikma va malakalar hosil qilishga olib keladi. Bularning hammasi o`quvchilarning ijodiy faolliklarini oshiradi. Ta`lim va tarbiyaning birligi Ta`lim jarayonida o`quvchini tarbiyalash, jamiyatda o`z o`rnini topishga yo`naltirish, ularga barkamol shaxs hislatlarini singdirish asosiy o`rinni tutmog`i lozim. Buning uchun:

a) o`zlashtirilayotgan ilmiy bilimlar orqali o`quvchilarda ilmiy materialistik asosda dunyoqarash tarkib toptirish;

b) shu jarayonda o`quvchilarga muayyan ma`naviy sifat, umuminsoniy ahloq meyorlarini singdirish; v) o`quvchilarning aqliy kamoloti va qobiliyatlarini yanada rivojlantirib borish nazarda tutiladi. Ta`lim-tarbiyaning birligini taminlash, ta`lim

jarayonini to'g'ri tashkil etish va xilma-xil o'qitish metodlaridan unumli foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun ayniqsa:

- a) bayon qilinayotgan o'quv materiallarining mazmuni ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatda to'g'ri yo'nalishga ega bo'lishi;
- b) o'qitilayotgan mavzuning ilmiy va tarbiyaviy mohiyatini ochib berish;
- v) bayon ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zlashtirish hamda turmushda ularga amal qilinishi;
- g) ta'lim jarayoni o'quvchilarning qiziqishini orttirish, faollik va tashabuskorliklarni oshirishga qaratilgan bo'lishi;
- d) ta'lim jarayonida o'quvchilarning saramjonlik, uyushqoqlik, intizomlilik va javobgarlikni sezish, jamoatchilik hamda o'zaro yordam hislarini tarbiyalashga alohida ahamiyat bermog'i lozim.

Ta'lim nazariyasining amaliyot bilan birligi prinsipi eng asosiy va yetakchi prinsipdir. Nazariyaning amaliyot bilan birligi masalasi faqat didaktik prinsipgina bo'lmay qolmay, balki o'quv tarbiya ishlarining hamma tomonini o'z ichiga oladi. Maktab ta'limi tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi dastavval o'quv predmetlarning mazmuni va harakteriga bog'liq holda o'qish jarayonida amalga oshiriladi. Ilmiy bilimlar puxta egallash, uning bir-biriga mustahkam va uzviy bog'liq bo'lgan ikkitomonini: Ta'lim jarayonida nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi izchillik bilan amalga oshirilishi oqibatidagina o'quvchilar o'quv materiallarining tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyot qonunlarini ilmiy asosda atroflicha to'g'ri tushinib va kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Ta'limda muntazamlilik va izchillik Maktab ta'lim -tarbiya jarayonining hamma sohasida muntazamlilik va izchillik prinsipi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Maktab o'quv predmetlarining muntazamliligi ustida gap borar ekan, uni fan va fanni o'rganish tizimidan farq qilish lozim. Fan va uning o'rganish tizimi o'ziga xos qirrali, chuqur va murakkab hodisalarni o'z ichiga oladi. Uni o'quv fanlari va predmetlariga o'rganish tizimiga tadbiq etib bo'lmaydi, bu mumkin emas. Shunday bo'lishiga qaramay bu ikki tizim o'rtasida umumiylik, birlik va muayyan ichki bog'lanishlar

mavjuddir. Shunga ko`ra, maktab o`quv predmetlarini muntazam bayon qilish bir qator didaktik qoidalarga amal qiladi, ya`ni bir tomondan umumtalim maktablarda o`qitilayotgan fanlar ma`lum fan tizimi bilan o`zaro mustahkam, ilmiy va mantiqiy bog`lanishlarga ega bo`lishi nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan, izchil muntazam o`qitilayotgan fanlar orqali o`quvchilarning bilish qobiliyati, o`zlashtirish darajasi va ularning ijodiy kuchlarini rivojlantirib borish nazarda tutiladi. Buning uchun maktab ta`limi jarayoni muntazamlilik prinsipining quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim. Ya`ni o`qitilayotgan fan yoki bayonqilinayotgan yangi materialning o`quvchilarning oldindan o`zlashtirgan bilimlari, ko`nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog`lanishi, shu bilan bir vaqtda o`qitilayotgan fan yoki o`quv materiallarini o`zlashtirish orqali kelajakda yangi fan yoki yangi bilimlarni o`zlashtirishga, shuningdek navbatdagi ta`lim bosqichiga o`tish uchun zamin yaratilishi nazarda tutmog`i lozim. O`qituvchi kundalik o`quv materiallarini bayon qilishda muntazamlilik prinsipiga muvofiq dars o`tadi. Bunda:

1) Yangidan bayon qilinayotgan o`quv materiallarining oldindan o`zlashtirilgan materiallar bilan izchil bog`lanishini ta`minlash va shu orqali o`quvchilarda hosil qilingan tasavvur va tushunchalarni hamda chuqurlashtirish;

2) Bayon qilinayotgan o`quv materiallarining hajmiga muvofiq sur`atda qisimlarga bo`lish, undagi yetakchi va bosh masalalarni ajratish qisimlardan kelib chiqadigan umumiy tushunchalarni aniq va ravshan qilib o`qitish;

3) Yangi materiallarni bayon qilish jarayonida o`quvchilarni mustaqil mantiqiy fikr qilishga da`vat etish, shuningdek ijodiy urinishlarni tarbiyalash kabilar nazarda tutilmog`i lozim. Shu bilan birga ta`limning muntazamlilik prinsipi bayon qilinayotgan o`quv materiallarini mustahkamlash va ilgari o`tilgan materiallarini to`ldirishga hizmat qilishi; o`quvchilarning o`zlashtirgan bilim va hosil qilgan ko`nikma va malakalarni hisobga olib borishni ham o`z ichiga oladi.

Ta`limning muntazamliligi uning izchilligi bilan bog`liqdir. Izchillikka asoslangan ta`limning harakterli belgisi shundaki, u o`quvchilarning oldindan o`zlashtirgan bilim va malakalari

zamidagi yangi bilim, ko`nikma va malakalar hosil qilish, ularning o`zaro bog`lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni hosil qilish jarayonida oldin o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalar yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta`minlashga qaratilgandir. Ta`lim-tarbiya sifatini oshirishda didaktik yo`ndoshuv Ta`lim -tarbiya sifatini oshirish va bunda didaktik tamoyillarga yondashish mexanizmlarini tadqiq qilish hozirgi kunda o`z yechimini to`liq topgan emas. Pedagogika fani yuksalishiga ko`plab olimlar o`z hissalarini qo`shib kelishgan. A. Zunnunov, U. Mahkamov, J. Hasanboyev, R.Jo`rayev, K.Hoshimov, S.Nishonova, O.Hasanbayeva, O.To`rayeva, O`.Tolibov, X.Ibragimov kabi yirik olimlarimiz pedagogika fanining hozirgi kundagi dolzarb masalalari yuzasidan tadqiqotlar olib borib, uning rivojiga muhim hissa qo`shib kelmoqdalar. Ta'lim nazariyasi, didaktika, ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari masalalari o`zbek mutafakkirlari va ma'rifatpavarlarining, pedagog olimlari (S.Rajabov, A.Munavvarov, O.Roziqov, R.Mavlonova, N.Toxtaxodjayeva, J.Hasanboyev, U.Mahkamov va boshqalar) ning ham diqqat-e'tiborida bo`lib kelgan. Ular tomonidan yaratilgan darslik va qo`llanmalarda didaktik prinsiplar mohiyati yoritilgan. Pedagog olimlarimiz M. Ochilov, N. Sayidahmedov, J. G'. Yo`ldoshev, N. Azizxodjaeva, M.To`xtaxodjayeva, R.Mavlonovalarning ishlarida ta'limqonuniyatlari va prinsiplariga to`xtab o`tilgan. O.Roziqov, B.Azizov, G.Najmiddinovalarning "Umumiy didaktika"sida ta'lim prinsiplari tizimi va tavsifi berilgan. YA.A.Komenskiyning buyuk xizmati shunan iboratki, u didaktika tarixida birinchi marta ta'lim prinsiplarini tartibga solish masalasi bilan shug`ullandi. "Buyuk didaktika"asarining XV-XVIII boblarida amaldagi prinsiplarining ko`pchiligi asoslangan edi. 1975 yili YA.A. Komenskiyning "Buyuk didaktika" asari o`zbek tilida M.Ochilov muharrirligida chop etilgan. Bu sohada mutafakkirlarimizdan Ibn Sinoning fikrlari ham o`zigaxosdir. Uning «bilim orqali erishiladigan natijalar» haqidagi ta'limoti o`qitish nazariyasida alohida o`rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilish, tashqi ko`rinishini tahlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan.

1. hayotdagi narsa, hodisa va voqealarni yoki o`quv materiallarini to`g`ridan-to`g`ri kuzatish orqali, bevosita idrok qilish yo`li bilan;

2. ilgari sezilgan, idrok qilingan narsalar va o`quv materiallarining obrazlarini qaytadan ega tushirish, tasavvur qilish yo`li bilan;

3. narsa, hodisa va voqealar yoki o`quv materiallarini tasviri ifodalangan ko`rsatma materiallarini namoyish qilish yo`li bilan idrok qilish mumkin.

Ta`lim jarayonida ko`rsatmali materiallarni qaysi yo`l bilan idrok qilishdan qat`iy nazar, to`g`ri tashkil qilingan ko`rsatmalilik prinsipi ta`limning yetakchi qonun-qoidalar va talablarni amalga oshirishda juda muhim didaktik masalalarni o`z ichiga oladi, ayniqsa:

1) bayon qilinayotgan mavzuni harakteriga mos keladigan ko`rsatmali materiallardan unumli va to`g`ri foydalanish o`quvchilarni o`tilayotgan materiallarni o`zlashtirishga bo`lgan qiziqishlarini oshiradi. Dars qiziqarli o`tadi, sinf o`quvchilarining faolligi oshadi.

2) ta`limda qo`llanilayotgan ko`rsatmali qurollar o`quvchilarning qanchalik yaqqol va konkret, obrazli idrok qilinishini ta`minlasa va kuzatayotgan ob`ektga mumkin qadar sezgi organlari safarbar qilinsa, o`quv materiallari shunchalik tez, qulay va oson o`zlashtiriladi, uzoq vaqt esda saqlab qolish hamda qayta esga tushirish mumkin bo`ladi. Oqibatda o`quv materiallarining puxta o`zlashtirilishi ta`minlanadi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g`oyalarini amaliyotga tadbiiq etish Respublika ta`lim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyatini ta`minlash, ta`lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o`qituvchi, tarbiyachi, ishlab chiqarish ustalarining ma`naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog`liqdir. Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo`lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o`zaro bog`liqligiga asoslanadi. Shundagina o`quvchi-talaba o`rganayotgan o`quv

materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ulardan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmoq lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli, tushunib o'zlashtirilishiga olib keladi. Ta'limdaga onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi. O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'quvchi-talabaning fikr yuritishi ham shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil suratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday sharoitda o'qituvchi o'quvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishiga e'tibor bermog'i lozim. Yoshlardagi o'qish istagi ta'lim jarayonining zaruriy va mantiqiy qismidir. Shunday ekan, ta'limning samaradorli o'qituvchining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqirib borishiga bog'liqdir. Buning uchun o'qituvchi, ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim. Ta'lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim, shaxs shakllanishining asosiy manbaidir. O'qitib, tarbiya berish deganda bizda ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Shunday ekan, maktab obro'si, o'qituvchi obro'si, avvalo darsda shakllanadi. Til va adabiyot darsimi, matematika darsimi har doim ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko'rabilishi, tarbiya usullaridan foydalanish lozim. O'quvchi-o'quvchi ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatlari, imon -e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda o'qituvchi avvalo ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etashga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqitira olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil etish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarni

turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazyuniga mos kelishi, o'quvchi-talabaning yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi, hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalarini qo'llash va ishlab chiqish lozim. Ko'rsatmali materiallar o'quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli-tuman bo'lishi mumkin. Jumladan:

a) buyum va narsalarni asli tabiiy holda ko'rsatish (o'simliklar, hayvonlar, gerbariy va kolleksiyalar, laboratoriya mashg'ulotlariga namoyishlar, ekskursiyalar chog'ida ko'rsatiladigan buyum, narsalar).

b) tasviriy ko'rsatmali materiallarni namoyish qilish (rasmlar, fotosuratlar, diafilmlar va diapozitivlar, kinofilmlar va boshqalar).

v) narsa va buyumlarni shartli belgilar orqali ko'rsatish (o'quv xaritalari, sxema, jadval va maketlar).

g) ovozli ko'rsatmali materiallar (gramplastinka, magnitofondagi yozuvlar, ovozli kinofilmlar).

Bilimlar turli yo'l vositalari orqali puxta o'zlashtirilgandagina, u mustahkam esda qoladi, bu esa o'quv materiallarni ongli o'zlashtirishga, nazariya bilan amaliyotni bog'lashga, ko'rsatmalilikka

amal qilishga va bilimlarni takrorlash orqali mustahkamlashga bog'liqdir. Ta'limning bosh maqsadi esa bilishlarni sistemali va puxta o'zlashtirishdir. Ta'lim jarayonidaga muvaffaqiyatlarga faqat bilim berishda o'quvchi-talabaning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini xisobga olganda erishish mumkin. Shuning uchun o'qituvchida bolalar psixologiyasidan tegishli bilimlar yetarli bo'lishi lozim. Dars jarayonida shu sinf o'quvchilariga tegishli umumiy xususiyatlarni va har qaysi o'quvchiga tegishli xususiyatlar ta'limning har bir bosqichida e'tiborga olinishi darkor.

MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. CHunonchi, bu borada O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi –ustoz bo’lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o’stirish, ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo’lishi kerak». Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o’qituvchisi shaxsiga nisbatan qo’yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. O’qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo’nalishlari bo’yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatuvchi shaxs sanaladi. Ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etish unga ta’sir etuvchi omillarga bog’liqdir. Bu omillar ichki va tashqi omillardir. Ichki omillarga diqqat va ustanovkalar, qiziqish kiradi, ya’ni ta’lim jarayonida o’qituvchining o’quvchilar diqqatini tashkil qilishi, turlicha diqqat xususiyatlaridan foydalana olishi, diqqatning barqarorlik va ixtiyoriylik xususiyatini shakllantirishdagi usullardan foydalanib talaba diqqatini rivojlantirib borishdir. Shuningdek, o’quvchilarni ham o’ziga jalb qilish, o’zlashtirishda qiynaladigan, diqqati tarqoq talabalar bilan o’zaro munosabatlar o’rnatishi ta’lim muvaffaqiyatini belgilaydi.

XULOSA

O’quvchi har qanday ta’lim jarayonida ham, u o’quvchini qiziqtiradimi, zeriktiradimi undan qat’iy nazar dastur mazmunini egallashga tayyor turishlari, ustanovkalar ko’p jihatdan o’qituvchi shaxsiga bog’liqdir. Shuningdek, ichki omillarga bolaning dangasaligi, sustligi, o’z irodasini tashkil qila olmasligi, layoqatining pastligi ham kiradi. Tashqi omillarga o’quv materialining mazmuni va shaklini maqsadga yo’naltirish darajasi, talabaning bir sinfda yoki kursda ikki yil qolishi, bir ta’lim muassasasidan ikkinchisiga ko’chib o’tishi, o’qituvchilarni o’zgarib turishi va ularni o’quv jarayoniga munosabati, talabaning kasal bo’lib qolishi kabilar kiradi. Bular talabalarning bilimlarni o’zlashtirishi va uni uqib olishiga ta’sir qiladi va hatgo, o’zlashtirish jarayonini pasayishiga sabab bo’ladi. Ta’lim-tarbiya sifatini oshirish ham avvalo, o’qituvchiga, uning bilimi va mahoratiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalarni qo’llay olishiga bog’liqdir. Shuning uchun har bir o’qituvchi o’z ustida tinmay ishlasho’i va o’zida pedagogik mahoratni shakllantirib

va rivojlantirib borishi lozim. Ta'lim prinsipi ta'lim tarbiya jarayoniga asos bo'ladigan ta'limiy qonun qoida ma'nosini ifodalaydi. Darsni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishda talaba va o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, didaktik qoidalar ta'lim prinsiplari hisoblanadi. Bu prinsiplar har fanda o'ziga xos tadqiq etiladi. O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi fan texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan, o'qituvchi ilm fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, o'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talabayoshlarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan. Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izoxlardan foydalanmoq lozim. Nazariy bilimlarning amaliyot bilan, turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalaridan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011.- 420 b.
2. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.
3. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTERNET. Ped